

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

**MUMTOZ SHARQ FILOLOGIYASI FAKULTETI**

**CHET TILLARI KAFEDRASI**

**ZAMONAVIY TA'LIMDA TIL  
O'QITISH NAZARIYASI VA  
AMALIYOTI: MUAMMO, YECHIM VA  
YUTUQLAR**

**mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi  
materiallari to'plami**

**24 may 2023**

**УДК: 4. 81**  
**C - 12**

Ushbu to'plam O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 2-maydagi "O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar rejasi to'g'risida"gi buyrug'I hamda Vazirlar mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2023-yil 8-maydagi 03-03/3487-sonli xati ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi Mumtoz sharq filologiyasi fakulteti Chet tillari kafedrasidan o'tkazilgan "ZAMONAVIY TA'LIMDA TIL O'QITISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI: MUAMMO, YECHIM VA YUTUQLAR" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

To'plam materiallaridan filologlar, sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar, mustaqil tadqiqotchilar, magistr va talabalar, xalq ta'limi va umumta'lim maktablari o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o'zlari mas'uldirlar)

***Tahrir hay'ati:***

**Hay'at raisi:** **Shamsematova B.** – O'zXIA Chet tillari kafedrasidan mudiri, PhD.

**Hay'at a'zolari:** **Akbarova Sh.** – Chet tillari kafedrasidan dotsenti v.b., PhD.

**Mo'minova D** - Chet tillari kafedrasidan dotsenti v.b., PhD.

**Xodjakulova F.** - Chet tillari kafedrasidan katta o'qituvchisi;

**Aripova K.** - Chet tillari kafedrasidan katta o'qituvchisi.

**Xasanova D.** - Chet tillari kafedrasidan o'qituvchisi;

**Eshboyeva D.**– Chet tillari kafedrasidan o'qituvchisi;

## *Mundarija*

<b>Zamonaviy ta'limda til o'qitishning dolzarb muammolari .....</b>	<b>1</b>
Abdulazizov D, Zaynobiddinova G .....	2
Ashirbayeva N .....	4
Asilova G .....	7
Avezova D.....	9
Babayev M .....	13
Badalbayeva M .....	17
Bakhtiyorova N .....	20
Elboyeva M .....	23
Elmurodava G .....	26
Eshboeva D .....	29
Eshboyeva D .....	32
G'ulomova Sh .....	35
Isakova G .....	38
Ismatova Sh .....	41
Ismoilova Sh .....	44
Jakbarov M, Mirsaidov A .....	48
Jakbarov M, Mirsaidov A .....	51
Khalimova M .....	54
Kurbonboyeva D .....	57
Mamatkulov E, Mamatkulova B .....	60
Mardanova Z .....	63
Mirakbarov M .....	66
Muinova G .....	74
Najimova F .....	77
Nasriyeva Sh .....	82
Normurodova X .....	84
Nuraliyeva Sh, Niyazova F .....	87

# O'QUVCHILARGA NEMIS TILINI O'RGATISHDA FONETIKA VA INTERFAOL METODLARNING ROLI

**Babayev Maxmud**  
**Tashpulatovich**  
*Buxoro davlat universiteti*  
*"Tarjimashunoslik va*  
*lingvodidaktika" kafedrası*  
*o'qituvchisi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarga nemis tilini o'rgatish jarayonida uchraydigan fonetik xatolar, muloqot jarayonida uchraydigan fonetik muammolar va metodlari masalasi keng yoritilgan. Shuning bilan bir qatorda fonetik misollar va interaktiv metodlar hamda ularni bartaraf etish yo'llari bir necha misollar orqali yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'quvchi, metod, fonetika, interfaol, zamonaviy, tushuntirish o'yini

**Аннотация:** В статье рассматривается широкий круг фонетических ошибок, фонетических проблем и методов, встречающихся в процессе обучения немецкому языку студентов. Кроме того, на нескольких примерах проиллюстрированы фонетические примеры и интерактивные методы и способы их преодоления.

**Ключевые слова:** читатель, метод, фонетика, интерактив, современный, объяснительная игра.

**Annotation:** This article covers a wide range of phonetic errors, phonetic problems and methods encountered in the process of teaching German. In addition, phonetic examples and interactive methods and ways to overcome them are illustrated with a few examples.

**Key words:** reader, method, phonetics, interactive, modern, explanatory game

Bizga ma'lumki, metod yunoncha so'z bo'lib, yo'l-usul ma'nosini anglatadi. Metod didaktik ma'noda hamma fan uchun umumiy bo'lgan o'qitish usullari hamda vositalarini o'z ichiga oladi. Chet tili o'qituvchisi o'quvchilarga bilim berishda o'z mehnatini yengil, lekin samarali va zavqli qiladigan ish usullarini qo'llaydi, o'quvchilarning bilim va malakalarini mustahkam o'zlashtirishlari hamda amalda qo'llay olishlariga ko'maklashadigan mashqlarni tanlaydi. Mana shular bir butun holda o'qitish metodi hisoblanib, majoziy ma'noda u san'at deb ham yuritiladi. Demak chet tili o'qituvchisi, mutaxassis sifatida, lingvistikani mukammal bilishi va dastur materiallari bo'yicha ishlash mahoratini egallagan bo'lishi kerak. Metod o'qituvchining o'quvchilarning darsdagi o'quv faoliyatini belgilovchi faoliyatining usuli deb qaraladi. Metod tanlash, o'rganilayotgan materialning xususiyatiga bog'liqdir. Tilni o'rgatish jarayonida metodlarning turlari ko'pdir. Mashqlar ustida ishlash metodlari, shu bilan birga ijodiy ishlar malaka va ko'nikmalarni o'stirish uchun foydalanishi mumkin. O'qituvchi tomonidan o'qitishning xilma-xil metodlarini qo'llash hozirgi davrning eng muhim talabidir. O'qituvchi mavzuni tushuntirish davomida qaysi bir metoddan foydalanib, nima qilish kerakligini, qanday harakat qilish, qanday materiallardan

foydalanish zarurligini ko'rsatishi lozim. Shuning uchun chet tillarini o'qitishda ko'rsatish yana bir usul hisoblanadi. "Usul" tushunchasi bilan "Metod" tushunchasini bir-biridan farqlash lozim. Metod-bu uslub, usul esa har qanday uslubni ko'rsatish usuli, yoki ko'rsatish yo'llari hisoblanadi. Metodika tarixida 3 asosiy metod mavjud: amaliyot, ko'rsatish, tushuntirish metodlari. Amaliyotning faollik, sistemalilik va maqsadga qaratilganlik xususiyati bor.

Amaliyot metodi nutqqa tayyorlovchi va nutq mashqlariga bo'linadi. Tayyorlov mashqlari kommunikativ birliklar, so'z birikmalari, so'zlar va so'zlarning grammatik formalari tarzidagi til materiallarini o'zlashtirish uchun, talaffuz, grammatik va orfoepik ko'nikmalarni o'stirish uchun xizmat qiladi.

Ko'rsatish metodi kommunikativ birliklar, so'zlar va grammatik formalarni tushuntirish va ma'nolarni ochib berish yo'llarini o'z ichiga oladi.

Tushuntirish metod sifatida ko'rsatish va amalda qo'llash imkonini beradi. Amaliyotning faollik, maqsadga qaratilganlik xususiyati borligini ko'rsatish va tushuntirish metodlari orqali ko'rishimiz mumkin. Dars jarayonida mavzuga oid ko'rgazmali materialni ko'rsatib, uning mazmuni tushuntiriladi. Bu mavzuga oid ko'rgazmadagi rasmlarni o'z ko'zi bilan ko'radi. Tushuntirish metodlarini o'qituvchi o'zining pedagogik mahoratidan kelib chiqib, dars jarayonini tashkil etadi. Chet tilini o'rgatishda zamonaviy metodlarni qo'llab, darsni qiziqarli qilib o'tish, o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmay, balki tilni mukammal o'rganishlariga imkon beradi. Tilni mukammal o'rganishga zamin yaratiladi.

Zamonaviy metod tushunchasi haqida fikr yuritishdan avval metod (uslub) atamasi nima? - degan savolga javob beraylik.

Didaktlar (ta'limshunoslar) "metod" atamasini bilim, malaka, ko'nikmani egallash, o'quvchilarga dunyoqarashni shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo'lidagi muallim va o'rganuvchining ish usuli ma'nosida izohlaydilar. Mazkur ta'limiy tushunchaning son- sanoqsiz ta'rif-tavsiflarga egaligi mutaxassislariga ma'lum. Fan asoslarini o'rgatadigan o'quv predmetlari uchun mo'ljallangan ta'limning umumiy metodlari ishlab chiqilgan. O'quv predmetining xususiyatlari hisobga olinib, metodikada chet til o'qitish metodlari yaratilgan. "Metod"- maqsadga erishish yoki vazifani o'tash usuli; Chet tillar o'qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan.

Fonetika tilning tovushlar sistemasini o'rgatadi. Maktabda chet tilini o'rganish jarayonida "fonetika "qismi o'quvchilarda, asosan, amaliy malakalar (savodxonlik, to'g'ri so'zlash kabi)ni shakllantirish va takomillashtirishni ko'zda tutadi. O'quvchilar chet tilini o'rganish davrida o'zbek tilidagi harflar bilan chalkashtirish yoki o'zbekcha talaffuz qilish hollari ko'p uchrab turadi. O'zbek adabiy tilidagi unli va undosh fonemalarning talaffuzi nemis tilidagi unli va undosh fonemalarining talaffuzi bilan bir xil emas. O'quvchilarga ikkala tildagi unli va undosh fonemalarni qiyoslagan holda tushuntirish va o'rganilayotgan tilning har bir harfini to'g'ri talaffuz qilish tilni samarali egallashga zamin yaratadi. Agar o'quvchi nutq tovushlarini yaxshi bilsa, nemis tilidagi so'zlarning talaffuziga va to'g'ri yozishda mustahkam malaka hosil qiladi. Tilning fonetikasini puxta o'zlashtirmagan o'quvchi orfografiya va morfologiyani ham yaxshi o'zlashtira olmaydi. Nemis tili fonetikasi mashg'ulotlarida nutq tovushlari va urg'uning so'zlar ma'nosiga ta'sir etishi turli mashqlar orqali izohlanadi. Fonetikaning orfografiya bilan bog'langan qismida o'quvchilar diqqatini ko'proq so'zlarning talaffuzi bilan yozilishi o'rtasidagi farqlarga

jalb qilish kerak. O'quvchilar nutqida ba'zi tovushlarni aniq talaffuz qilmaslik, talaffuzi bir-biriga yaqin tovushlarni qorishtirib yuborish hollari uchrab turadi. Masalan: ö-o (schön-schon), d-t(und-unt). Bu hol ularning yozuviga ham ta'sir etadi. Bunday kamchiliklarni tuzatish uchun o'xshash tovushlarning talaffuzi bilan yozilishiga oid maxsus mashqlar o'tkazish foydalidir.

Nutq tovushlari. O'quvchilarga avval fonetika termini tushuntiriladi: fonetika-tilning tovush sistemasini o'rgatadigan fan(fonetika har bir jismning tebranishidan hosil bo'lgan fizik tovushlarni emas, balki inson nutqiga xos tovushlarni tekshiradi). Birgina tovushning o'zgartirib talaffuz qilinishi so'zning ma'nosini o'zgartirish xususiyatiga egadir. Masalan: Staat-Stadt, ya'ni, Staat-davlat, Stadt-shahar ma'nolarini ifodalaydi. Nemis tilidagi harf va tovushlar haqida fikr berishdan oldin o'quvchilarni nutq organlari bilan tanishtiriladi. So'zlash organlarining rasmi yordamida o'pka, bo'g'iz, tovush paychalari, kekirdak, tanglay kabilarning qayerga joylashganligini ko'rsatadi. Keyin bu organlarning nutq tovushlarini hosil qilishdagi funksiyasi tushuntiriladi.

Hozirgi zamon darslarda qo'llanilayotgan metodlarni zamonaviylashtirishni talab etmoqda. Mamlakatimizda barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularga ma'naviy ozuqa berib, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning puxta bilim olishi uchun zarur barcha sharoit va imkoniyatlarni yaratish bugungi davr talablariga javob berishdir. Bularning barchasi o'zining yuksak samaralarini bermoqda.

Interfaol metod ("Inter"- bu o'zaro, "act"- harakat qilmoq)- o'zaro harakat qilmoq yoki kim bilandir suhbat, muloqot tartibida bo'lishini anglatadi. Interfaol metodlar ta'lim mazmunining o'zlashtirishida o'quvchilarining o'qituvchi bilan birgalikda yoki o'quvchilarning o'zaro bir-birlari bilan

birgalikda faoliyat ko'rsatishlarini tashkil etishni nazarda tutadi. Interfaol metod o'quvchilarning berilgan va o'zlashtiradigan ma'lumotlarga o'z fikrini bildira oladigan bo'lishi, darslarda o'quvchilarning faolligi, mustaqil izlanishi, erkin fikrlay olishiga tayanadi. Interfaol uslublar asosida o'tiladigan har bir darsda o'quvchning faolligi oshadi, bilim olishga, bo'lgan qiziqishi ortadi, o'qituvchi bilan birgalikda muayyan yo'nalishda munozara olib bora oladilar, bilimlarni mustaqil o'zlashtiradilar.

Interfaol metodlarni ta'lim jarayonida qo'llash, kam vaqt, kuch va resurs sarflab, ko'proq samaraga erishishdan iboratdir. Bilamizki, interfaol metodlarning eng asosiy belgilari bu o'quvchilarning yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishlari, ta'lim jarayonida berilgan yoki o'zlashtirilayotgan mavzu ustida kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlashlaridir. O'quv jarayonidagi topshiriqlar alohida bir o'quvchiga emas, balki kichik guruhlariga bo'lingan a'zolarning har biriga berilishi ularning yanada fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Nemis tilini ilk o'rganuvchi o'quvchilar uchun nemis alifbosidagi 26 ta harf va 45 ta tovushni o'rgatishda interfaol metoddan keng foydalanish mumkin. Masalan, bir darsda bir harf o'rgatildi. O'quvchilarga ma'lum vaqt beriladi, shu vaqt ichida o'tilgan va o'rgatilgan harf bilan boshlanadigan so'zni tezlik bilan aytishlari va aytilgan so'zning tarjimasini berishlari kerak. O'quvchilar faollik bilan harakat qilib, bir-birlaridan qolib ketmaslik uchun harakat qiladilar. Bugungi zamon o'qituvchisidan bola tarbiyasiga atroflicha yondashishni, yosh avlodning tafakkuri, dunyoqarashi, mantiqiy mushohada yuritish qobiliyati hamda ma'naviyatini har taraflama rivojlantirishni talab etmoqda. Shunday ekan, interfaol metodlar ham o'z-o'zidan tasodifan paydo bo'lib qolgan emas. Uning XX asrning so'nggi choragida yuzaga kelishi ham bejiz emas. Ta'lim jarayonini

interfaol metodda tashkil etish uchun tafakkurning yuksak bo'lishi, ilmiy fan taraqqiyoti yuksalishi kerak edi. "Ilmiy bilim turg'un hodisa bo'lmay, tinimsiz qurish va qayta qurishdan iborat kechimdir", - deydi shvesariyalik mashhur faylasuf va pedagog Jan Piaje.

Nemis tilini mukammal egallash nemis tilidagi har bir harfning yozilishi, o'qilishini mukammal egallashdan boshlanadi. Nemis tilida harflarni to'g'ri talaffuz qilish katta ahamiyatga ega. So'zni noto'g'ri talaffuz etish yoki so'zning artikllarini noto'g'ri qo'yish so'z ma'nosiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan: das Tor-darvoza, der Tor-tentak, befarosat, ahmoq, schön-chiroyli, schon-allaqachon. der Erbe-merosho'r, das Erbe-meros. Nemis tilida bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Shuning uchun nemis tilida talaffuz muhim rol o'ynaydi. To'g'ri talaffuzga o'rgatish uchun turli o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan So'z o'yini. O'qituvchi o'yinni boshlab beradi. O'yin alfavitdagi birinchi harf bo'lgan „a“ hafridan boshlanadi.

Apfel → lachen Nase → Esel → Lampe → Elefant  
→ Tor → Radio → Onkel → ... O' quvchilar so'zlarni aytish bilan birga aytilgan so'zlarning tarjimalarini ham aytishlari shart. Bu o'yin orqali o' quvchilar nemis tilidagi so'zlarni, shu bilan birga so'zlarning tarjimalarini o'rganadilar. O'qituvchi har bir o'quvchining nemis tilidagi so'zlarning to'g'ri talaffuziga e'tibor beradi va o'quvchilarni nazorat qilib boradi. Bunday o'yinlarni har darsda tashkil etilsa, nemis tilidagi harflar

mukammal egallanadi va ijobiy natijalarga erishiladi. Dars-ta'lim jarayoning asosi. U o'qituvchi mehnatiga baho beruvchi muhim mezon. Dars samaradorligini oshirish o'tilayotgan mashg'ulotni zamonaviy metodlar asosidaligiga bog'liq. Yaxshi o'qituvchilar yaxshi o'quvchilarni tayyorlaydilar. Ijodkorlik, izlanuvchanlik va tashabbuskorlik o'qituvchi faoliyatining eng muhim xususiyatlaridan biridir. Shu xislatlari orqaligina o'qituvchi ta'lim va tarbiyani yuksak pog'onaga ko'tara oladi, uning metod va usuli samaradorligini ta'minlaydi. Hozirgi davrda sodir bo'layotgan inovatsiyon jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirish va o'zlashtirilgan bilimlarini o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham o'quv-tarbiyaviy jarayonda zamonaviy o'qitish metodlari interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Miroyubov A.A., Raxmanov I.V., V. Setlin tahriri ostida. O'rta maktabda chet tillar o'qitishning umumiy metodikasi, -T.: O'qituvchi, 1974.
2. Zaripova R.A. Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma, -T.: O'qituvchi, 1986.
3. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi, T.: O'qituvchi, 2012.